

SOME COMMENTS ON THE HISTORY OF THE LIBRARY

Egamov Nazirbek Nurullayevich
TerSU "Uzbekistan History and Source Studies" the Main
Doctoral Student of the Department
+998942067377, naziregamov7@gmail.com

Abstract

This article contains information about the conditions, problems and historical processes related to the emergence of the history of bibliography and librarianship in world history, in particular, in the history of Uzbekistan.

Key words: writing, library, bookmaking, parchment, wrapping book, codex book, manuscript books, printing style, publishing, booksellers, periodization.

KUTUBXONA TARIXIGA OID AYRIM MULOHAZALAR


Annotatsiya:

Ushbu maqola jahon tarixi, xususan, O'zbekiston tarixida kitobshunoslik va kutubxonachilik tarixining paydo bo'lishiga oid shart-sharoitlar, muammolar va tarixiy jarayonlar haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: yozuv, kutubxona, kitobat ishi, pergamen, o'ram-kitob, kodeks kitob, qo'lyozma kitoblar, bosma uslub, noshirlik, kitobfurushlar, davrlashtirish.

Insoniyat tarixidagi eng buyuk ixtirolardan biri bu yozuvdir. Uning ixtiro etilishi insoniyatning kelajak avlodga ma'lumot qoldirishi uchun asosiy vosita bo'lib xizmat qildi. Vatanimiz tarixida eng qadimgi yozuv namunasi sifatida Xorazmda jovlashgan Katta Oybo'yirqal'adan topilgan xumdagi yozuvni tilga olish mumkin. Mazkur xumning yasalgan sanasi olimlar tomonidan miloddan avvalgi V-IV asrlar deb belgilangan. Mazkur xumdagi yozuvning qaysi tilda yozilganligi haligacha to'liq aniqlanmagan, ammo olimlarning bir qator asosli taxminlari bor. Bu borada gap ketganda Markaziy Osiyo xalqlari yozuvi tarixi bilan jiddiy shug'ullanib kelgan eng nufuzli olimlardan professor V.A.Livshits va akademik E.V.Rtveladzelarning fikri ancha muhimdir. Ularning fikriga ko'ra, xumchadagi yozuvning tili katta ehtimol bilan qadimgi xorazm tili emas, balki oromiy tilidir (Rtveladze E.V, Livshits V.A. Pamyatniki drevney pismennosti. - T. 1985. 8-9-b). Chunki o'sha davrlarda Eron ahamoniylari bosqini sabab O'rta Osiyo hududiga oromiy yozuvi va tili kirib kelgan edi.

Qaysi tilda yozilganidan qat'iy nazar o'sha davrda yurtimiz tarixida yozuvning paydo bo'lganligi keyingi davr kitobshunosligi uchun poydevor vazifasini bajargan. Yozib qoldirilgan kitoblar moziy sirlarini ochib berishda eng muhim manba bo'lish bilan bir qatorda insoniyatning ongi va tafakkurining yuksalishida ham alohida ahamiyat kasb etadi. Insoniyatning shu narsani tushunib yetgan qismi doimo kitoblarni asrab-avaylash va uni kelajak avlodga yetkazish masalasida bir qator amaliy ishlarni bajarganlar, qanday holatda bo'lmasin yozma manbalarning yo'q bo'lib ketmasligi uchun astoydil harakat qilganlar. Har xil bosqinlar, janglar, tuzumlar o'zgarishi va boshqa siyosiy omillar kitoblar va boshqa qo'lyozma ma'lumotlarning yo'q bo'lib ketishi xavfini tug'dirgan davrlarda ham o'z jonini xavf-xatarga




qo'yib bo'lsa ham ilm-fanni, qimmatli yozma ma'lumotlarni himoya qilishga intilgan buyuk insonlar doimo mavjud bo'lgan. Ular kitoblarning yo'q bo'lib ketmasligi va kutubxonalarining ko'payishini xohlaganlar. Tarixda aynan shunday insonlarning sa'y-harakatlari evaziga kitobshunoslik va kutubxonachilik kabi tarmoqlar paydo bo'la boshlagan. Turli davrlar mobaynida bu sohalar turlicha rivojlangan va bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Olis o'tmishga nazar soladigan bo'lsak miloddan avvalgi III mingyillikda Qadimgi Misrda va Mesopotamiyada vujudga kelgan kitobning qadimgi shakli sopoldagi bitiklar bilan bir qatorda papirus o'rami ko'rinishida ham bo'lgan. Yozma xabar berishning qonuniy shakli sifatida o'ramlar Qadimgi Yunonistonda ham qaror topgan, so'ngra Qadimgi Rimda qabul qilingan. O'ramda matn tor ustunlar shaklida joylashtirilgan, satrlar yo'nalishi o'ram uzunligiga parallel tarzda bo'lar edi. Papirus o'ramining o'rtacha kengligi 15-30 sm, uzunligi 5-6 m bo'lgan, ayrim hollarda esa 20-40 m ga ham etgan. (Axunjanov E. Kutubxonashunoslik, arxivshunoslik, kitobshunoslik: nazariyasi va tarixi. Toshkent. 2011. 49-b). Jahon tarixida kitoblar va kutubxonachilik ishining paydo bo'lishi qog'oz kashf etilishini ham kutib o'tirmagan. Ilk kutubxonalardan biri Old Osiyoda Ossuriya hukmdori Oshshurbanapal buyrug'i bilan sopol taxtachalarga bitilgan yozuv namunalari tuzilgan edi. Bu faoliyat kitobga va kutubxonachilik masalasiga o'sha vaqtlarda ham qanchalik chuqur e'tibor berilganligining yorqin namunalari biri hisoblanadi. Bu kutubxonadagi sopol taxtachalarni eng dastlabki kitob namunalari biri deyish mumkin. Ushbu kutubxonaning tuzilishiga homiylik qilgan Ossuriya hukmdori Oshshurbanapalning nomi tarixda muhrlanib qolishiga ham uning bosqinchilik siyosati yoki kuchli boshqaruvi emas, balki aynan mana shu kutubxonani tuzganligi hisoblanadi. Shu ma'lumotning o'ziyoq kutubxonani tuzish va kitobat ishini rivojlantirish nechog'lik katta ish ekanligini ko'rsatib turibdi.

O'ram-kitob hukm surgan bir necha yuz yillardan so'ng taxminan milodiy I asrda kodeks kitobning paydo bo'lishi kitob shakllarining rivojlanishida muhim hodisa bo'ldi. Kitob yangi shaklining paydo bo'lishi va tarqalishi yozuv materiali sifatida pergamen (maxsus usulda ishlov berilgan teri) dan foydalanilishi bilan bog'liq. Kodeks quyidagi tarkibiy qismlardan iborat edi: ikki bukilgan pergamen varag'i «diploma» deb atalardi, ustma-ust qo'yilib ikki bukilgan to'rtta shunday varaq «tetra» (qad. yunon. tetra - to'rt) - daftarni hosil qilardi, birgalikda tikilgan daftarlarni to'plami esa «kodeks»ni tashkil etardi. Tuzilish jihatidan kitobning nisbatan progressiv shakli bo'lgan kodeks funksional va utilitar xususiyatli bir qancha ustunliklarga ega edi: o'ramdan farqli o'laroq, kodeksda matn sahifaning ikkala tomoniga yozilardi, uni tez varaqlab chiqish mumkin edi, kodeks mustahkam yozish va bezash uchun qulay edi. Jahon kitobat madaniyati tarixida mavjud kitob shakllarining rang-barangligi kitobning eng ko'p tarqalgan klassik shakllari bo'lgan o'ram va kodeks kitob bilan cheklanmaydi, ularning barchasida hozirgi zamon kitobining dastlabki shakllari muayyan darajada o'z aksini topadi. (Axunjanov E. Kutubxonashunoslik, arxivshunoslik, kitobshunoslik: nazariyasi va tarixi. Toshkent. 2011. 50-b). Shu asosda kitob shakllarining poydevoriga tamal toshlari qo'yilgan va rivojlanish yo'liga o'tgan.

Kutubxonachilik masalasida uzoq yillar izlanish olib borgan tadqiqotchilar O. Qosimova va T. Yesimovlar o'zlarining «Umumiy kutubxonashunoslik» kitobida kutubxonaga shunday ta'rif berganlar: «Kutubxonani – bu kitoblar va kishilik jamiyati tarixining majmuasidir, shu ma'noda kutubxonalar insonparvar muassasadir».




Ushbu ta'rifga qo'shimcha qilgan holda kutubxonalarni insoniyat tarixida fikrlash va anglash masalasini rivojlantirgan mexanizm deb atash ham to'g'ri bo'ladi, bizningcha. Hind olimi Sh. Ranganatanning "Kutubxona o'sadigan organizmdir", - degan gapi ham fikrimizni yanada to'ldiradi.

Bizning diyorimizda ham kitoblarning paydo bo'lishi va kutubxonalarning tuzilish jarayonlari bir qancha bosqichlarni bosib o'tgan. Tariximizdagi qo'lyozma kitoblar o'zining tarixiy rivojlanishi jarayonida toshga, sopol va yog'och taxtachalarga yozilgan bitiklardan tortib, teri va qog'oz o'ramlarigacha, keyinroq esa bir necha daftarlardan iborat holda muqovalanadigan kodeks kitoblar darajasigacha bo'lgan bosqichlardan o'tgan.

Tarixiy davrlardagi turli tuzumlarning almashishi va jamiyatda moddiy ne'matlarni taqsimlash usullarining o'zgarishi bilan bog'liq tarixiy jarayonlar kitob va kutubxona ishi tarixini ilmiy davriylashtirishning bosh mezonini hisoblanadi. Kitob ishlab chiqarish usullari (qo'lyozma yoki bosma), davlat siyosati, turli diniy konfessiyalar, alohida shaxslar, noshirlar, kitobfurushlar, kutubxonachilarning kitob ishlab chiqarish, taqsimlash va takror ishlab chiqarish sohasidagi faoliyati, kitob repertuari va kutubxona fondining tuzilishi singari omillar har bir tuzum doirasida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shunga asoslanib tadqiqotchi olim Erkin Axunjanov o'zining "Kutubxonashunoslik, arxivshunoslik, kitobshunoslik: nazariyasi va tarixi" kitobida O'zbekistonda kitob va kitobat ishi tarixini besh asosiy tarixiy davrga bo'ladi:

- 1) Qadimgi va ilk o'rta asrlar davri - miloddan avvalgi V asr - milodiy VIII asr.
- 2) Rivojlangan va so'nggi o'rta asrlar davri - IX asr - XIX asrning birinchi yarmi.
- 3) Rossiya mustamlakasi ostida rivojlanish davri - 1867-1917 yillar.
- 4) Sho'ro mustabid tuzumi ostida rivojlanish davri - 1917-1991 yillar.
- 5) Mustaqil suveren O'zbekistonning rivojlanish davri - 1991 yil 1 sentyabrdan


Maqolamizda ushbu davrlashtirishning barcha davrlariga alohida to'xtalib o'tmoqchi emasmiz, ammo tariximizda kutubxonachilik sohasida yuz bergan eng katta o'zgarishlar va unga sababchi bo'lgan tarixiy shaxslar faoliyatini bir qadar tahlil qilishni lozim deb bildik. Shu bilan birga kutubxonachilik faoliyatiga o'ziga xos rivojlantiruvchi kuch bo'lib xizmat qilgan madrasalar faoliyatini ham esdan chiqarmaslik to'g'ri bo'lardi. Chunki madrasalar faoliyati kutubxonalar faoliyati bilan chambarchas bog'liq. Maxsus ta'lim muassasasi - madrasa musulmon madaniy dunyosida birinchi bo'lib aynan Turonzamin shaharlarida vujudga keldi va keyinchalik boshqa musulmon mamlakatlariga tarqaldi. «Madrasa o'quv yurti sifatida hatto musulmon dunyosining poytaxti - Bag'dodda ham faqat XI asrning ikkinchi yarmida paydo bo'lgan..., vaholanki, Movarounnahrda madrasalar bu vaqtga kelib ko'pdan beri faoliyat ko'rsatar edi», deb yozadi atoqli sharqshunos, akademik V.V. Bartold. Boshqa bir joyda madrasa ilk bor Narshaxiy (899-959) ning «Buxoro tarixi» asarida 937-yilgi Buxoro yong'ini munosabati bilan tilga olinganligini qayd etadi. Tarixchi Narshaxiy bergan ma'lumotga qaraganda o'sha yong'inda katta Forojik madrasasi o'zining noyob qo'lyozmalar kutubxonasi bilan birga yonib ketgan (Bartold V. V. Uchenoe musulmanskogo Renessansa. Soch. T. 619-b). Buxoro, Xiva, Sam arqand, Gurganj, Termiz, Marv, Hirot, Balx, Kesh, Xo'jand, Shosh (Toshkent), Ho'qand (Qo'qon), Andijon, Marg'ilon va boshqa o'nlab shaharlar bir necha asrlar davomida dam ravnaq topib, dam inqirozga uchrab, so'ng yana ilmiy va badiiy tafakkur hamda intellektual hayot markazlari sifatida nom chiqarib keldi. Shaharlarda o'nlab madrasalar va maktablar, xonaqolar va shifoxonalar, kutubxonalar, bozorlar, sahhoflar (muqovasozlar) va kitobfurushlarning do'konlari faoliyat ko'rsatar, ular olimlar va adabiyotchilar, shoirlar va mohir xattotlar, tabiblar, hunarmandlar va oddiy xalqning savodxon va o'qimishli vakillarini o'zida jamlagan edi.



VIII-IX asrlardagi madaniy-tarixiy evolyutsiya davomida Turkistonda kitobat ishining yangi sifatda vujudga kelishi va kitobat ishi sohalarining rivojlanishi bilan bog'liq yangi jarayonlar ro'y berdi. Kitoblarni qayta ko'chirish va ko'paytirish hunari alohida kasbiy faoliyat sohasiga ajraldi, xattotlik, sahhoflik va kitobfurushlik kasblari paydo bo'ldi. Qo'lyozma kitoblar ishlab chiqarishning o'sishi bilan kitob savdosi hajmlari kengayib bordi, yangi-yangi kutubxonalar, bibliografik asarlar paydo bo'ldi, rang-barang kitob repertuarlari yuzaga keldi.

VIII asrning oxirida xalifa Horun ar-Rashid (786-809) hukmronligi davrida Bag'dodda o'ziga xos Fanlar akademiyasi vazifasini bajargan "Donishmandlik uyi" ("Bayt ul-Hikma") tashkil qilindi. Unda dunyo xalqlarining turli tillaridagi qadimgi qo'lyozmalar kolleksiyasiga ega bo'lgan yangi qo'lyozmalar bilan uzluksiz to'ldirib turilgan boy kutubxona faoliyat ko'rsatdi. Ushbu kutubxonaning faoliyati vatanimiz hududidagi olimlar uchun juda katta ahamiyat kasb etgan.

Eron hukmdori Buyuk Xusrav I (531-579) davridan qolgan va musulmon madaniy dunyosida xalifa Horun ar-Rashid davrida qayta tiklangan udumga ko'ra, Turonzamindagi ko'pgina hukmdorlar ham o'z saroylarida adiblar, olimlar, muarrixlar, solnomachilar, muhaddislar, fiqh bilimdonlari, hofizlar, mug'anniylar va kitob ustalarini to'plaganlar. Shular bilan bir qatorda o'z kutubxonalariga asos solganlar yoki ota-bobolaridan meros qolgan sulolaviy kutubxonalarni yangi-yangi kitoblar bilan to'ldirganlar, qo'lyozma kitoblardan nusxa ko'chirish, ularni ta'mirlash bilan shug'ullanuvchi ustaxonalar ochganlar. Xorazmshoh Ma'mun ibn Ma'mun (997-1017) Bag'doddagi mashhur "Bayt ul-Hikma" an'alarini muvaffaqiyat bilan Turonzaminga ko'chirdi. U Gurganjda o'sha davrning eng sara olimlarini to'pladi va ko'plab ilmiy asarlarni o'z ichiga olgan qimmatli kutubxona tuzdi. Shuning uchun Ma'munning olib borgan ilmiy faoliyatini tariximizda kutubxonachilik ishini yangi bir bosqichga olib chiqqan deb bema'lol aytish mumkin. Tarixiy manbalar Buxoroda Somoniylar davrida (X asr), Shayboniylar va Ashtarxoniylar davrida (XVI-XVII asrlar), Buxoro xonligi davrida (XVIII-XIX asrlar), Samarqandda Amir Temur va uning nabirasi Ulug'bek davrida, Hirotda Shohruh, Boysung'ur, Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy davrida (XV-XVI asrlar), Marvda (XI-XII asrlar), Qo'qonda (XVIII-XIX asrlar) qo'lyozma kitoblarni ko'paytirish va ulardan nusxa ko'chirish bo'yicha saroy kutubxonalari faoliyat ko'rsatganidan dalolat beradi. XI-XII asrlarda Xorazshohlar ham o'z kutubxonalariga ega bo'lib, bu an'ana Xiva xonligi davrida (XVI-XIX asrlar) ham davom ettirilgan. (Axunjanov E. Kutubxonashunoslik, arxivshunoslik, kitobshunoslik: nazariyasi va tarixi. Toshkent. 2011. 208-b). Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro" kitobida keltirilgan Hirot kitobxonasi haqidagi ma'lumotlar saroy kutubxonalari va ularda ishni tashkil etish to'g'risida ma'lum tasavvur beradi. XV asrning 20-yillarida otasi Shohrux Mirzoning ko'rsatmasiga binoan Boysung'ur Mirzo Hirotda kutubxona tashkil etgan. Mazkur kutubxonada mashhur xattot Mavlono Ja'far Tabriziy boshchiligida kitob san'atining 40 nafar ustasi faoliyat ko'rsatgan. Bu erda xattotlar, kotiblar, miniatyurachi rassomlar, bezakchi - naqqoshlar, zahhob - zargarlar, sahhof - muqovachilar ta'mirchilar va boshqa ustalar mehnat qilganlar. 1426-yilda Firdavsiy qalamiga mansub "Shohnoma" asarining turli variantlari to'plandi va yaratilganidan keyin oradan 435 yil o'tgach birinchi marta uning mukammal matni tuzilib, aynan Boysung'ur Mirzo kutubxonasida qayta ko'chirildi. Boshqacha qilib aytganda, bu ishni amalga oshirish uchun Hirot kutubxonasidagi "Shohnoma"ning talay qo'lyozmalari solishtirib chiqildi, o'sha davr nuqtai-nazaridan ulkan matnshunoslik tadqiqoti o'tkazildi. Dostonning yangi tuzilgan matniga katta so'zboshi berildi. Boysung'ur Mirzo kutubxonasining ushbu nodir qo'lyozmasi saqlanib qolgan bo'lib, hozirda Tehrondagi Guliston kutubxonasi maxzanida saqlanmoqda.



XV asr tilshunos va adabiyotshunos olimlari tomonidan amalga oshirilgan katta ishni yuksak baholagan taniqli rus sharqshunosi E. Bertels jumadan shunday deb qayd etadi: «... Hirot kitobxonasi bu ishni amalga oshirmaganida, hozir biz hatto bir qancha yirik tadqiqotlarga asos bo'lgan nomukammal matnga ham ega bo'lmas edik».

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, vatanimiz tarixidagi juda ko'p davrlarda kutubxonachilik ishi va kitob dunyosiga bo'lgan e'tibor juda yuqori bo'lgan. Ko'pchilik hukmdorlar ilm-fan homiylari sifatida dunyoga dong taratganlar va o'zlaridan yuksak ma'naviy meros qoldirishga intilganlar. Bularga misol tariqasida Xorazm hukmdori Ma'mun ibn Ma'mun, G'aznaviylar hukmdori Mahmud G'aznaviy, temuriyzodalardan Mirzo Ulug'bek, Boysung'ur Mirzo, shayboniylardan Ubaydullaxon, Abdulazizxon, Abdullaxon II, Abulg'ozzi Bahodirxon, Qo'qon xoni Umarxon va shu kabi ko'plab hukmdorlarni keltirish mumkin. Mana shu intilish va homiylik samarasi o'laroq diyorumizdan ko'plab qomusiy olimlar va dunyo tan olgan allomalar yetishib chiqqan. Kutubxonalar faoliyati shunchaki olimlar yetishib chiqishiga sababchi bo'lib qolmay, oddiy xalq vakillarining ham ma'naviy dunyosini kengaytirishga xizmat qilgan, insonlar tafakkurini kengaytirgan va ularning qalbiga asrlar davomida ezgulik urug'ini qadab kelgan. Ushbu urug'ning hosili o'laroq mamlakatimiz dunyo ilm-fani markazlaridan biri sifatida tan olindi deyish to'g'ri bo'ladi, nazarimizda. Shuning uchun ham kutubxonachilik va kitobshunoslik sohalari har qanday davrning eng e'tibor talab qiladigan sohalari qatoriga qo'shiladi. Bu fikrning qanchalik asosli ekanligini tariximiz yaqqol namoyon etib turibdi. Zero tarix ilmi o'tmishdagi jarayonlarni xolis o'rgangan holda, undan to'g'ri xulosa chiqarishni talab qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Axunjanov E. Kutubxonashunoslik, arxivshunoslik, kitobshunoslik: nazariyasi va tarixi. Toshkent. 2011
2. Axunjanov E. Vatan kutubxonachiligi tarixi. 1-qism Toshkent. 2004
3. Axunjanov E. Vatan kutubxonachiligi tarixi. 2-qism Toshkent. 2008
4. Bartold V. V. Uchenoe musulmanskogo Renessansa. Soch. T. 1967
5. Belovitskaya A. A. Obshee knigovedeniye. Moskva. 1987
6. Qosimova O, Yesimov T. Umumiy kutubxonashunoslik. Toshkent. 1994
7. Rtveldze E.V, Livshits V.A. Pamyatniki drevncy pismennosti. Tashkent. 1985.